



## **YANGI O'ZBEKISTON: YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTITSIYA YOSHLAR NIGOHIDA**

*Buxoro davlat texnika universiteti 716-24 IQT guruh talabasi*  
**Musayev Qurbonali Husen o'g'li**

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada yashil iqtisodiyot hamda yashil iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar haqida izlanish olib boriladi, hamda yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun dasturlar muhokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *imtiyoz, preferensiya, yashil iqtisodiyot, mqobil energiya, zaxira resurs, tabiiy resurs, kelajakka qadam.*

Hozirgi zamonaviy muommolar ichida eng yuqori darajada yuksak o'rinda rivojlanayotgan muommolarning yetakchisi bu ekologik muommo sanaladi. Ekologik muommolar ayniqsa so'nggi yillar ichida keskin rivojlanib kelmoqda. Ekologik muommo qanchalik tez rivojlanayotganini aniq raqamlarda ko'rib turganimiz, biz insoniyat uchun katta muammo hisobdi. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlari hamda iste'molning an'anaviy shakllari yer yuzidagi tabiiy resurslarning kamayishiga, ekologik xavfning ortishiga va yer yuzida iqlim o'zgarishiga olib keladi, bu esa biz insonlarni bu kabi muommolarga zudlik bilan choralar ko'rishimizni talab qiladi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tushunchasi, ayniqsa, mamlakatning qurg'oqchil iqlimi va suv resurslarining yetishmasligi kabi iqlim xususiyatlari nuqtai nazaridan tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Davlat esa qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va zararli chiqindilarni kamaytirish bo'yicha dasturlarni faol amalga oshirmoqda. Ammo innovatsiyalar va barqaror iqtisodiy rivojlanishga yangicha usul bilan yondashish, hamda yashil iqtisodiyot faqatgina davlat tanlovi emas, balki bu yo'nalishni tartibga solish, qo'llab quvvatlash hamda Yangi O'zbekistonni barpo etishda biz yoshlarning ishtirokimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh mutaxassislar, tadbirkorlar, tadqiqotchilar va talabalar ekologik toza texnologiyalar, energiya tejamkor yechimlar va barqaror qishloq xo'jaligiga tobora ko'proq qiziqish bildirmoqda, startaplarda ishtirok etmoqda va atrof-muhit holatini kuzatish uchun raqamli yechimlarni ishlab chiqmoqda. Asosiy masala shundaki yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish va kelajak avlodlarga, mustahkam poydevor yaratish uchun davlat va jamiyat ushbu salohiyatdan qanchalik samarali foydalana olishidir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston yoshlari yashil iqtisodiyotning ahamiyatini va uning mamlakat kelajagidagi rolini tobora chuqurroq anglamoqda. Yashil Iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish uchun



davlatning roli mustahkam qalqon vazifasini bajarmoqda, va shu bo'yicha davlatimiz rahbari bejiz Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz" deya alohida ta'kidlab o'tmagan. O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishini ta'minlash maqsadida:

- texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

- davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan "yashil" mezonlarni kiritish;

- davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;

- ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga "yashil" iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog'liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

- Orolbo'yidagi ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish choralarini ko'rish;

- "yashil" iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;

- energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;

- iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;

- "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish;

kabi vazifalar asosiy qilib belgilanganligi O'zbekiston iqtisodiyotini qayta modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning yangi bosqichida ekanligini bildiradi.



Ayni shu maqsadda yurtimizga kiritilayotgan investitsiyalarga alohida imtiyoz va preferensiyalar berilmoqda ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3594-sonli farmoniga asosan:

- ☐ Muqobil energiya manbalari negizida elektr stansiyalari qurish
- ☐ Turizm (mehmonxona xizmatlari, turizm xizmatlari, tematik xiyobonlarni tashkil qilish, ko'ngilochar xiyobon, xiyobonlar ansambli),
- ☐ Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish kabi maqsadlarda:
- ☐ 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha — 3 yil muddatga;
- ☐ 3 million AQSh dollaridan ortiq va 10 million AQSh dollarigacha — 5 yil muddatga;
- ☐ 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda — 7 yil muddatga alohida imtiyoz va preferensiyalar berilganligi bejiz emas.

Ayni shu maqsadlarda kelajakda qilinadigan ishlar majmuasi qatoriga, ko'plab quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda va iqtisodiyot tarmoqlarida energiya tejamkor texnologiyalar joriy etilmoqda. Bu yo'nalishni izchil davom ettirish maqsadida, 25 ta strategik ahamiyatga ega korxonada yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlanadi va bu orqali 2022-2026-yillarda sanoat tarmoqlarida 3,9 milliard kub metr tabiiy gazni, 4 milliard kilovatt soat elektr energiyasini va 21 ming tonna neft mahsulotlarini tejash rejalashtirilmoqda. Buning natijasida har bir mahsulot tannarxida energiya ulushini 20 foizga kamaytirish maqsad qilingan. Kam uglerodli rivojlanish bo'yicha uzoq muddatli strategiya va "yashil" moliyalashtirish milliy dasturi ishlab chiqilgani, investitsiya loyihalarida "yashil" komponentlar kelgusi besh yilda 50 foizgacha ko'paytirilishi rejalashtirildi. Issiqxona gazlarini monitoring qilish va emissiya uchun kvotalar savdosi bo'yicha milliy tizimlarni joriy etish ishlari natijasida, 2030-yilga kelib issiqxona gazlari chiqarilishini 35 foizga qisqartirish va bu majburiyatni bosqichma-bosqich oshirib borish reja qilingan. Yashil makon" dasturi doirasida shaharlar hududlarining kamida 30 foizi ko'kalamzor maydonlarga aylantiriladi. Qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni 100 foiz tatbiq etish tizimli choralari ko'rilmoqda. Oxirgi yillarda energetika sohasiga qariyb 20 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilindi va 9,6 gigavatt zamonaviy energiya quvvatlari ishga tushirildi. Jumladan, 3,5 givattli 14 ta quyosh, shamol elektr stansiyalari va 300 megavattli 2 ta saqlash tizimlari ishga tushirildi.

Hozirda xorijiy hamkorlar bilan qiymati 26 milliard dollardan ziyod va umumiy quvvati 24 gigavatt bo'lgan 50 dan ortiq yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. 2030-yilga qadar mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan.



Yangi O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot nima uchun suv va havodek zarur degan savolni o'rtaga tashlaydigan bo'lsak, suv tanqisligi, yirik shaharlarda havoning ifloslanishi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, hamda butun dunyo uchun sezilarli ahamiyat kasb etayotgan "Orol dengizining qurishi" kabi ekologik muommolar yangi avlod uchun chaqiriq vazifasini bajarmoqda. Talabalar va yosh mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, respondentlarning 68 foizi yashil iqtisodiyot shunchaki trend emas, balki mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun zarur, chunki u tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitning ifloslanish darajasini kamaytirish va ekologik toza texnologiyalar sohasida yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi, deb hisoblaydi.

O'zbekiston yoshlari bu kabi islohatlarda faol munosabat bildirmoqda. Masalan, Toshkent davlat texnika universiteti talabalari qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun plastik chiqindilarni utilizatsiya qilish loyihasini ishlab chiqdi. Natijada yiliga 5 tonnadan ortiq plastik qayta ishlanib, chiqindilar hajmi kamaytirildi va bozorga arzon hamda ekologik xavfsiz qurilish materiallari taklif etildi. Toshkent shahri va Samarqand viloyatida qayta tiklanuvchi energetika sohasida yosh mutaxassislar qishloq joylar uchun samarali quyosh batareyalari va avtonom energiya ta'minoti tizimlarini yaratish bo'yicha loyihalarda ishtirok etmoqda. 2023-yilda Urganch davlat universitetining bir guruh talabalari Xorazm viloyatining ekstremal ob-havo sharoitlariga moslashtirilgan quyosh panellarining innovatsion modelini taklif qilishdi. Bularning barchasi talabalarda ekologik ongni shakllantiradi.

Shu bilan birgalikda bu yo'nalishda ham turli muammolar yetarlicha, ya'ni startaplarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, Ekologik loyihalarni ishga tushirish yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, muqobil energiya manbalarini joriy etish yoki chiqindilarni qayta ishlash bo'ladimi, katta sarmoyalarni talab qilishi, yashil texnologiyalar sohasida ishlaydigan kompaniyalarda amaliy mashg'ulotlar va amaliyotlarning yo'qligi kabi muammolar hanuzgacha yechim kutmoqda.

## **XULOSA**

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va salohiyatini oshirish maqsadida respublikamizda, 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, 2030 yilga borib havoga zararli gazlar chiqarishni 10 foizga kamaytirish, investitsiya loyihalarida "yashil" komponentlar kelgusi besh yilda 50 foizgacha ko'paytirilishi, 2030-yilga kelib issiqxona gazlari chiqarilishini 35 foizga qisqartirish vazifalari "yashil" iqtisodiyotning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston yoshlari yuqori darajadagi xabardorlik va innovatsion yechimlarni joriy etishga tayyorligini namoyish etib, yashil iqtisodiyot rivoji uchun asosiy dastak vazifasini bajarmog'i lozim.



#### Takliflar:

1. Yashil investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari(3-5 yil uchun), yangi investitsiya qilingan jarayonga bu o'zini oyoqqa turg'izishi uchun yaxshi muddat bo'lishi mumkin.

2. Yashil energetika tarmog'i bo'yicha QQS(qo'shilgan qiymat solig'i) va foyda solig'idan ozod qilinish, tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqargan elektr tarmoqlar uchun oladigan daromadidan QQS to'lovini yechmaslik, tadbirkorga yanada ko'proq elektr ishlab chiqarish imkonini berishi mumkin.

3. Qayta moliyalashtirish stavkasida( 13.5%) yashil energetika uchun kreditlar va subsidiyalar ajratish, bu jarayonda fuqarolar ham o'zlarining xonadonlariga muqobil energiya manbayini o'rnatib ishga tushirishida qulaylik yaratishi, muqobil energiya manbalarini ko'paytiradi.

4. Ekologik toza texnologiya va qayta tiklanuvchi texnologiyalarni olib kirishda bojxona soliqlaridan ozod qilish yoki kamaytirilgan bojxona soliqlar, qimmat narxdagi muqobil energiya manbalarini xarid qilishda barcha davlat fuqarolari va tadbirkorlari birdek imkoniyatga ega bo'lmasligi mumkin, bu esa ularni qo'llab quvvatlaydi.

5. Yashil sanoat zonalarini tashkil etish( alohida qonun bilan mustahkamlangan tarzda maxsus zonalar tashkil etilishi), shahar markazlarida va Toshkent shahrida bu ishlarni amalga oshirsa ekologiyaga chiqayotgan zararli havo massasi kamayadi.

6. Ekologik normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish.

7. Davlat-xususiy sherikchilikni ko'paytish.

8. Yashil texnologiyalar bo'yicha ilmiy izlanishlar qo'llab-quvvatlash uchun maxsus davlat grantlari va Oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlarga yashil iqtisodiyotga oid ishlab chiqarishni ishlab chiqish uchun mablag' olish, yosh mutaxasislarni, va yosh olimlarni izlanishga undovchi hamda moliyalashtiruvchi davlat bo'ladigan bo'lsa, kelajakda yaratiladigan intellektual mulkni davlat boshqarishi yoki davlat nzaoratida turishi sabab xorijiy davlatga chiqib ketmasligi.

Ushbu chora-tadbirlar, bizning fikrimizcha, yoshlarga yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda faol ishtirok etish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'RQ-598-son qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3594-sonli farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xalqaro maydondagi nutqlari.